

## **METHODOLOGY OF FORMATION OF MATHEMATICAL IMAGINATION IN CHILDREN OF PRESCHOOL AGE**

**Tolibboyeva Sabina Sherzod qizi**

Student at UzSWLU

**Annotation:** This article describes the organization of various activities for the formation of mathematical imagination in preschool children, as well as modern methods of use for each type of activity.

**Keywords:** Teacher, educator, preschool education, child psychology, method, methodology, education, thinking, education, mathematical imagination, teaching process, result

Bolalar tafakkurining aniqlikdan abstraklikka qarab rivojlanish xususiyatlariga bog'liqdir. Matematikani o'qitishdan asosiy maqsad – mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat ; biroq matematikani o'qitish aniq fakt va obrazlardan ajralmasligi , aksincha har qanday masalani o'rganish shu aniq fakt va obrazlarni tekshirtirishdan boshlash kerak.

Ko'rgazmalik o'quv materiali o'zlashtirishni osonlashtiradi va bilimning mustahkam bo'lismiga yordam beradi .

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga matematika o'qitish metodikasida asosiy o'rinni metodik usullar sifatida beriladigan savollar egallaydi .Ular reproduktiv -mnemik , reproduktiv- bilish, produktiv – bilish bo'lishi mumkin .Bunda savollar aniq va ixcham bo'lishi lozim , o'qitish jarayonida bolalar yoshi va o'rganiladigan materialga bog'liq holda reproduktiv va produktiv savollar birligi bo'lishi kerak . Savollar bolalar fikrlashini rivojlantirishni ta'minlaydi .

Bolalarga beriladigan savollar ko'pincha guruhda nazoratni qo'lga olish maqsadida qo'llanadigan savollar bo'lishi mumkin. Ko'pincha qo'llanadigan savollar , bu yopiq deb ataluvchi savollardir. Ularga faqat bir tog'ri javob bo'ladi va ko'rib chiqilayotgan muammolarni tahlil qilishda muhimdir.

Ochiq savollarni ko'rib chiqaylik.

Faraziy savollar . Agar ... bo'lsa ,siz nima qilardingiz ,o'ylandingiz ? Ular bolalarga u yoki bu vaziyatlarni tasavvur qilishlariga yordam beradi , fikrlash jarayonini kuchaytiradi.

Rag'batlantiruvchi , qo'llab – quvvatlovchi savollar . Bu juda qiziq ,keyin Nima bo'ldi ? Ular bolalarga shaxsiy tajribalari va qarashlari bilan o'rtoqlashishga imkon beradi.

Fikr bildirish savollari . “ Siz ... to'g'risida nima deb o'ylaysiz ? “ Bunday savollar bolalarga ularning fikrlari muhim va qiziqarli ekanligini bildirishda qo'llaniladi.

Surishtiruvchi savollar .Nima uchun bunday deb o'ylaysiz ? Xotirjamlik bilan berilgan bu savol ularga oz fikrlarini chuqurroq o'ylab ko'rishlari va tushuntirishlarini tahlil qilishlariga yordam beradi.

Tushuntiruvchi , umumlashtiruvchi savollar. Siz ... deb o'yayapsiz desam , men haq bo'lamanmi ? Bola aytganlarini umumlashtirish va uni to'g'ri tushunganligini tekshirish boshqalarni ular shu fikrga qanday munosabatda undaydi.

Rozilikni bildiruvchi savollar. Ko'pchilik ekanligiga rozimisizlar? Bunday savollar munozaraga undosh uchun berilishi mumkin .Yoki munozara yakunida , Biz bu qismni tugatdikmi ? kabi savollar keyingi mavzuga o'tishga ruxsat olish uchun beriladi .

Ikkilantiruvchi savollardan foydalanmaslikni esda tutishga harakat qiling. masalan “ X -haq ,shundaymi? Bunday savollar bolaning faolligini susaytiradi .Bir zumda juda ko'p savol bermang va ikki ma'noni anglatuvchi savollarni qo'llamang.

Savol bilan bolalarni himoyalanishga majburlamaslik kerak , ularda tanlashga imkoniyat bo'lishi kerak va bu imkoniyatni o'zları yaratadi. Ular quyidagicha bo'lishi mumkin:

reproduktiv – mnemonik (masalan : Bu Nima ? Bayroq qanday rangda ? Bu figura qanday nomlanadi?);

-reproduktiv -bilsiz (masalan : Agar men polkaga yana bittasini qo‘ysam nechta kubik bo’ladi ? Qaysi son (Kichik): 9 yoki 7 ?);

-produktiv -bilsiz uchun Nima qilish kerak? Bu vazifani qanday yechamiz ?).

Bir zumda juda ko’p savol bermaslik va ikki ma’noni anglatuvchi savollarni qo’llamaslik lozim. Savollar bolalarda qabul qilish ,xotira ,fikrlash , nutqni faollashtiradi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. “Maktabgacha ta’limga qo’yilgan davlat talablari “ T.:2017.
2. Tolipov O’. Usmonboyeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiylar” T.:2006.
3. N.M. Kayumova “ Maktabgacha pedagogika “. TDPU nashriyoti T.:2013.